



ONA TILI DARSLARIDA MULOQOT ODOBINI SHAKLLANTIRISH

Yuldashova Shoira Kamiljanovna

Qoraqalpoq davlat universiteti

Magistr:

Yuldashova Shoira Kamiljanovna

Karakalpak State University

Master:

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darslarida o'quvchilarning muloqot odobini shakllantirish asosiy masala ekanligi haqida gap ketadi. Shuning bilan birga nutq odobini shakllantirish jarayonida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ayrim o'rinlar to'g'risida ham fikr yuritilgan. Hamda egallangan bilim, ko'nikma, malakalarning ba'zi mezonlari xususidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, muloqot odobi, nutqiy madaniyat, notiqlik, voizlik, muloqot madaniyati, muloqot obyekti, refleks, qadriyat, nutq, nutqiy ko'nikma, bilim, malaka, ko'nikma, orfoepik xatolar.

Abstract. This article discusses the main issue of forming students' communication etiquette in native language lessons. At the same time, some points that should be paid attention to in the process of forming speech etiquette are also discussed. Also, some criteria for acquired knowledge, skills, and qualifications are highlighted.

Keywords: conversation, conversation etiquette, speech culture, oratory, preaching, conversation culture, object of conversation, reflex, value, speech, speech skills, knowledge, competence, skill, orthoepic errors.

Bosh maqsadi vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi bo'lgan milliy g'oyamizning kurashchanligini ta'minlashda mukammal ma'naviyat va ma'rifat hal qiluvchi omil bo'lib, ona tiliga muhabbat va barqaror ehtirom ana shu omilni shakllantiradi. Shuning uchun ham milliy g'oya targ'ibida millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat tarbiyasi muhim o'rin tutadi. Ona tiliga chinakam sohib bo'lmoqning bosh sharti esa uning tuganmas imkoniyatlarini tugal egallamoq, ya'ni fikrni mustaqil, ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmoqdan iborat muloqot madaniyati malakalarini shakllantirmoqdir.

Milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis ko'zgusi tildir. Hadisi sharifda ham: "Kishining zebu-ziynati, go'zalligi uning tilidadir", –deyiladi. Yurtimizda axloq masalasi serqamrov, qiyosi yo'q tushuncha sifatida azaldan jamiyatda osoyishtalikning asosiy omili bo'lib kelgan. Axloqning asosiy omillaridan biri esa muloqot madaniyatidir.

Sharqda nutqiy madaniyat, notiqlik, voizlikning bevosita asosi til, nutq bo'lsa, yana bir asosi nutq egasining axloqi, ma'naviy-ma'rifiy kamoloti deb qaralgan. Nutq



madaniyati tildan bemalol, maqsadga o'ta muvofiq va ta'sirchan bir tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir. Boshqacha aytganda, nutq madaniyati tilda doimiy mavjud bo'lgan xilma-xil ifoda shakllaridan fikr uchun eng maqbullarini tanlay bilish va shu asosda raso nutq tuza olish mahoratidir.

Muloqot madaniyatining tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy sifatlari bilan belgilanishini ta'kidlab o'tish lozim. Pedagogik muloqot madaniyatining har jihatdan to'g'ri tanlangan, o'qituvchining ma'naviy saviyasi, betakror xususiyatlariga muvofiq keluvchi jihati quyidagi vazifalarni hal qilishga yordam beradi:

- muloqotda har bir o'quvchiga alohida e'tibor va dilkashlik, o'quvchilar bilan umumiy muloqot jarayonini soddalashtiradi, o'qituvchining erkin pedagogik faoliyati uchun zamin tayyorlaydi, ziddiyatli vaziyatlarni oson hal qiladi;
- har bir o'quvchi bilan o'zaro munosabatni erkin muloqot asosida tashkil qilish, ularning yosh xususiyatlariga mos pedagogik va psixologik muloqot uslublarini tanlash, ularning ruhiyatini bilishga, ichki dunyosiga "kirib borish"ga yo'l ochadi;
- pedagogik muloqotda o'qituvchining ma'naviy-axloqiy me'yorlari muvaffaqiyat kaliti bo'lib, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi, muloqotning barcha bosqichlarida o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqish hissini, xotirjamligini ta'minlaydi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqot madaniyati individual uslublarini shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. O'quvchilar bilan muloqot qilish madaniyatining individual shaxsiy xususiyatlarini o'rganish. O'quvchilar shaxsiy xususiyatlarini mustaqil tahlil qilish, har tomonlama tavsif berishi o'qituvchining muloqotni to'g'ri tashkil etishi asosida amalga oshadi.
2. Shaxsiy muloqotda ro'y beradigan kamchiliklarni aniqlash va darhol ularga barham berish choralari izlab topish. Bunda muloqotda qo'pollik, mensimaslik va boshqa salbiy holatlarni engish nazarda tutiladi.
3. O'zining muloqot madaniyati uslublariga muvofiq keluvchi milliy an'ana va ma'naviyatimizga xos jihatlardan unumli foydalanish.
4. Muloqot madaniyatida pedagogik faoliyat qonuniyatlaridan chetga chiqmaslik.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi va o'quvchilarning bevosita o'zaro munosabatini ma'lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo'naltiruvchi kuchdir. Bu o'rinda o'qituvchi quyidagi vaziyatlarni e'tiborga olishi lozim:

- o'qituvchining ilk tarbiyaviy faoliyatidan boshlab muloqot madaniyatiga rioya qilishi, bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchilar bilan har kungi muomalani vaziyatga qarab rejalashtirishi, har bir harakat, so'z ohangiga e'tibor, an'anaviy muloqotning eng yaxshi xususiyatlarini o'zlashtirishi;





- muloqot asosida sinf jamoasidagi turli vaziyatlarni qayd etish, o'quvchilar hatti-harakatining oldingi holati bilan tarbiyaviy faoliyatdan keyingi holatini qiyoslab chiqib baho berish;

- o'z muloqot uslubi natijalarini tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilib, kamchiliklarni uzluksiz bartaraf etib borish. Zarur so'z, ovozdagi yoqimli ohang, hulq-atvorni vujudga keltirish;

- pedagogik muloqot madaniyatining samarali kechishi uchun uning shart-sharoitlarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi, o'quvchilar bilan o'zaro muomalaning ustoz-shogird an'alariga xos boshlanishi va o'zaro fikr almashish asosida muhim vazifalarni hal qilish bilan muomala obyektining diqqatini o'ziga jalb qilish;

- muloqot obyekti, ya'ni o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qilish deganda nimani anglash kerak? Buning ma'nosi o'qituvchi o'zining xushmuomalaligi, madaniyati, go'zal xulqi, muloqotda o'quvchilar qalbiga yo'l topa olishi bilan o'z mahoratini namoyish qilib, muloqot madaniyatining tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psixologik negizni asos qilib olishidir.

Ko'rsatib o'tilgan vaziyatlar asosida pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun o'qituvchining pedagogik muloqot madaniyatiga, etikasi va odob-axloqiga, dilkashligiga alohida talablar qo'yiladi. Ushbu fazilatlar o'qituvchining o'quvchilar va ota-onalar bilan muloqot qila bilishida, o'quvchilar bilan aniq maqsadni ko'zlagan holda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishida hamda ularni boshqara olishida muvaffaqiyatlar garovidir. Kasbiy faoliyatning noyob fazilati bo'lmish pedagogik muloqot madaniyatiga amal qiladigan o'qituvchi quyidagi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi lozim:

- mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy talablari va ehtiyojlariga mos bo'lgan yuksak ma'naviyat darajasidagi qarashlar, vatanparvarlik, fidoyilik tuyg'ulari shakllangan ijtimoiy-siyosiy faol shaxs;

- o'quvchilarga samimiy mehr-muhabbat, ularning har qanday ehtiyojlari, qiziqishlari, xatti-harakatlari, xulq-atvorlarini tushunish ko'nikmasi va malakasining shakllanganligi;

- jamiyatda ro'y berayotgan hodisalar, jahonda ro'y berayotgan voqealar, tabiatga, borliqqa, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlarga nisbatan pedagogik kuzatuvchanlik, yangilikka, ijodiy izlanishga nisbatan intilish qobiliyatining mavjudligi;

- pedagogik faoliyatning barcha jabhalarida odamlarning xatti-harakatlari, munosabatlaridagi xususiyatlarni oqilona tushunish, o'z faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabatni tarkib toptirish;

- har qanday favqulotda vaziyatlarga, jamiyatda ro'y berayotgan yangiliklarga nisbatan hamda ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlarga omilkorlik va aql- idrok bilan munosabatda bo'lish, o'z oldiga to'g'ri maqsad qo'ya olish, reja tuzish, bevosita nazorat qilish, boshqarish va o'z imkoniyatlarini namoyon eta olish;



- dunyoqarashi va tafakkur ko‘laminin g kengligi, dunyoviy bilimlarni bilishga nisbatan qiziqishining serqirraligi, ilmiy izlanishlarga moyilliligi, muayyan ilmiy salohiyat va pedagogik mahorat darajasini muntazam oshirib borishi;

- o‘quvchilar bilan muloqotda layoqatliligi, nutq madaniyatining mantiqan ixcham, ma’noli, ta’sirchan kuchga egaligi, psixologik ta’sir o‘tkazish bilan qurollanganligi.

Milliy g‘urur, umuminsoniy qadriyat va milliy o‘zlik idrokining barqarorligi, milliy ong va tafakkur, milliy hamiyat va iftixor, Vatanga teran muhabbat kabi ma’naviy kamolotning o‘zagini tayin etuvchi tushunchalarni ona tilidan ayro holda tasavvur ham etib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham xalq pedagogikasi manbalari, alloma ajdodlarimiz tilni ana shu mo‘tabar tushunchalarni inson shuuriga muhrlamoqning eng ta’sirchan vositasi deb bilganlar. Bu vositadan unumli va o‘rinli foydalanmoq uchun, avvalo, insonda til tarbiyasi tugal bo‘lishi, ya’ni ona tilining mohiyatini faqat aql bilangina emas, balki ichki hissiy sezgi bilan ham idrok etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Кўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубий асослари. –Т.: 1992.
2. Mavlonova R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Т.: О‘qituvchi. 2008.
3. Egamberdieva N.M., Xodjaev B.X. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishda badiiy pedagogika imkoniyatlaridan foydalanish. – Т.: “Fan va texnologiyalar”. 2011.
4. Hamroev G’. Ona tili o‘qitishning samarali usullari. - Т.: Bayoz. 2018.
5. Каримов А. Бир гапим бор уч тилло. Т.Адолат. 1992.
6. Маҳкамов У. Ахлоқ – одоб сабоқлари. – Т.: Фан. 1994.
7. Ортиқов А. Нутқ маданияти ва нотиклик санъати. –Т.: 2002.

